

## **OLXO'RI QALQONDORI BIOEKOLOGIYASI VA TARQALISHI**

**Ro'ziqulov Davlatbek Nazaraliyevich**

*katta o'qituvchi [konf.zara@gmail.com](mailto:konf.zara@gmail.com)*

*<https://orcid.org/0000-0002-5689-4563>*

**Rasulova Munira Zuxriddin qizi**

*Talaba [rasulovamunira87@gmail.com](mailto:rasulovamunira87@gmail.com)*

*<https://orcid.org/0009-0005-6904-185X>*

*Toshkent Davlat Agrar Universiteti*

**Annotatsiya:** Mazkur maqolada olxo'ri daraxtiga jiddiy zarar keltiruvchi so'rvuchi zararkunandalardan Olxo'ri qalqondori (*Chlidaspis prunorum Borchs*).larning bioekologiyasi va tarqalishi haqida malumotlar keltirilgan. Mevali bog'lardan sifatli hosil dolzarb muommolardan biri bo'lib,so'rvuchi zararkunandalar jiddiy zarar yetkazishi aniqlangan.

**Kalit so'zlar:** Olxo'ri , zararkunanda, Olxo'ri qalqondori (*Chlidaspis prunorum Borchs*).so'rvuchi.

**KIRISH:** Respublikamizda o'simliklarni uyg'unlashgan himoya qilish keng ko'lamda olib borilmoqda.

Mevali daraxtlarga zarar keltiradilar so'rvuchi zararkunandalar orasida olma biti va qalqondorlar katta zarar yetkazadi. Bular o'ziga xos xasharotlar guruxiga mansub bo'lib, ular o'simliklarning sharbati bilan oziqlanadilar, ko'pincha kalqondorlar o'simlikning to'qimasida patologik o'zgarishlarga olib keladilar, natijada barglarning va mevalarning to'kilishiga sabab bo'ladi, ayrim novda va shoxlarni quritadi, hosilning miqdori kamayib, sifati buziladi.

Ba'zi hollarda butun o'simlikning qurishiga olib kelishi ham mumkin. Bundan tashqari qalqondorlar so'rishi sabali o'simlik qobig'i va mevalarida qizil yoki to'q sariq rangli dog'lar paydo bo'ladi, bu esa meva maxsulotining mazasi va sifatini pasaytiradi,

ular normal kattalikkacha rivojlanmaydi. Odatda Kaliforniya va Binafsharang qalqondorlar shunday zarar keltiradi.

Ko‘pchilik koxsidlar juda xammaxo‘ra xasharotlar bo‘ladilar, ayniqsa yilning issiq davrida va xavoning nisbiy namligi past bo‘lganda xujayra shirasining organizmi xazm qilishidan ko‘ra ko‘proq so‘rib oladi. Bu esa tarkibida shakar kup bo‘lgan najosatning ajralishiga olib keladi. Yopishqoq va shirali tomchilar «asal shudring» deb nom olgan, ular barglar, mevalar va novdalarni qoplaydilar. Bu shirali chiqindilarda qora zamburug‘lar paydo bo‘ladi va barglarda fotosintezning bir me’yorda kechishiga xalaqit beradi, natijada mevali daraxtlarning tashqi ko‘rinishi va fiziologiyasida salbiy jixatdan o‘zgarishlar ro‘y beradi.

Mevali bog‘lardagi koxsidlar ichida Turon soxta, Binafsharang, Kaliforniya va O‘rta Osiyo vergulsimon qalqondorlari ko‘proq ahamiyatga ega. Ular O‘zbekistonning xamma yerlarida uchraydi va mevachilikka katta zarar yetkazadi.

Olxo‘ri qalqondori (*Chlidaspis prunorum* Borchs). Urg‘ochisining tanasi noksimon yoki oval shaklda, to‘q sariq rangli. Mo‘ylobli tepachalarida tuklar yo‘q va oxirida ikkita o‘simta bor. Pigidiyasi keng 2-3 juftli bo‘lakchalari bilan. Birinchi jufti ichki chekkasida tishlangan, ikkinchi va uchinchi juftlarining bo‘lakchalari ikkiga ajralgan, tojlari tuksimon. Urg‘ochisining qalqoni tuksimon sariq yoki to‘q sariq qurt terichalari bilan, ular qalqonning bosh qismidan chiqib turadi. qalqonning orqa qismi keng va o‘rtacha shishib chiqqan, uzunligi 1.6 mm ga yaqin. Erkaklarining nimfa qalqonchalari cho‘ziq, ayrimlarida deyarli oq, oval shaklda. Sektorli qismi tukli ipchalar bilan qoplangan, qalqonning uzunligi 1-1.2 mm, uning qurt terisi och sariq rangli.

Olxo‘ri qalqondori Markaziy Osiyo respublikalarining voha va tog‘ mintaqasidagi mevali daraxtlarda keng tarqagan. Markaziy Osiyodan tashqari Armanistonda, Eronda, Afg‘onistonda uchraydi. O‘zbekistonning Toshkent, Samarqand, Farg‘ona, Surxondaryo, Buxoro, Xorazm, Andijon viloyatlarida aniqlangan. Tojikiston va Turkmanistonda ham keng tarqagan.

Ko‘pgina mevali daraxtlar turlarini zararlaydi, urg‘ochilar o‘rik, olcha, olxo‘ri, bodomlarning shoxlari va novdalarida oziqlanadi. Olcha va olxo‘riga sezilarli zarar

keltiradi. Olxo‘ri qalqondorining urg‘ochisi imago shaklida ingichka novdalarda qishlaydi. Bir yilda ikki marotaba avlod beradi.



### *1-rasm Olxo‘ri qalqondori*

**Shaftoli soxta qalqondori biologiyasi va tarqalishi.** Shaftoli soxta qalqondori (*Parthenolecanium persicae* F.) Urg‘ochisining tanasi cho‘zinchoq-oval teskari qayiq shaklida, ko‘krak toj suyagi bilan. Yosh urg‘ochilar to‘q sariq, qoramtil ko‘ndalang chiziqchalari bilan, yoshi kattalari qizg‘ish-jigarrang, bir xil rangli, uzunasi 5-10.5 mm. Mo‘ylovi 8 bo‘g‘imli. Oyoqlari ingichka va mo‘ylavlaridan uzunroq, markaziy Osiyoda erkaklari hozircha topilmagan. Kavkazda erkaklari yirikroq bo‘ladi, uzunligi 8 mm gacha, och jigarrang. Mo‘ylavchasi 10 bo‘g‘imli, ko‘zları 3 juftli. Erkaklarining nimfasi (g‘umbagi) old tomondan cho‘zinchoq qalqonchasiga ega.

**Xulosa.** Olxo‘rining asosiy so’ruvchi zararkunandalar hisoblangan olxo‘ri qalqondori tarqalishiga qarshi uz voqtida qarshi kurashish va keltiriladigan zararni kamaytirish uchun ushbu zararkunandalar tarqalgan hududlarda shikastlangan har bir daraxtni hisobga olgan holda zararlanish darajasini nazorat etib turish va shular asosida erta baxordan to kech kuzga qadar tashkiliy – xo‘jalik tadbirlarini shuningdek, zararkunandalarga qarshi agrotexnik tadbirlarni o‘z vaqtida va yuqori sifatli qilib o‘tkazish, xususan daraxtzorlar qator oralariga ishlov berish, kuzgi yer haydovini sifatli

qilib o'tkazish, yaxob suvlarini berish, meneral va maxalliy o'g'itlardan samarali foydalanish, ayniqsa zararlangan daraxtlarni qo'shimcha oziqlantirish, daraxtlar ostidagi begona o'tlar va o'simlik qoldiqlarini yo'qotish xam zarur tadbirlardan hisoblanadi.

### **Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. Яхонтов В.В. Экология насекомых. – Москва: Высшая школа, 1969. – 487
2. Tadjiyeva M.I. Mevali bog'larning so'rvuchi zararkunandalari tur-tarkibi va ualrning entomofaglari. - Ташкент: Agro kimyo himoya va o'simliklar karantini ilmiy-amaliy jurnal Maxsus son [3]. 2023 175-176 bet
3. Alimuxammedov S.N., Xo'jaev Sh.T. - "G'o'zani zararkunandalardan himoya qilish" Toshekent 1991 yil Mexnat
4. Arslonov M.T., Yusupov A.X., B.A.Sulaymonov. O'simliklarni biologik himoya qilish. - Toshkent: "Ilm ziyo", - 2003.
5. Sh.T. Xo'jayev, E.A.Xolmurodov. Entomologiya, qishloq xo'jalik ekinlarini himoya qilish va agrotoksikologiya asoslari.Toshkent. – 2019.